

YANGICHA YONDASHUVLAR ASOSIDA BO‘LAJAK MAKTABGACHA TA’LIM MUTAXASSISLARIDA KASBIY VA KREATIV QOBILIYATLARINI SHAKLLANTIRISH

**Oxunov Ilxomjon Abdunabiyevich
ADPI, Maktabgacha ta’lim
nazariyasi kafedrasining
v.b.dotsenti (PhD)**

**Murodova Muxtasar Xabibullo Qizi
Maktabgacha ta’lim yo‘nalishi
3-bosqich talabasi**

Annotatsiya: Ushbu maqolada yangicha yondashuvlar asosida bo‘lajak maktabgacha ta’lim mutaxassislarida kasbiy va kreativ qobiliyatlarini shakllantirishning pedagogik-psixologik asoslari yoritilgan. Shu bilan birga, bo‘lajak maktabgacha ta’lim mutaxassislarida kasbiy va kreativ qobiliyatlarini rivojlantirishning ayrim pedagogik shartlari xususida fikr yuritilgan.

Kalit so‘zlar: Maktabgacha davr, ta’lim va tarbiya jarayoni, kreativlik, o‘quv-tarbiya jarayonga kreativ yondashuv, tarbiyachining kasbiy pedagogik tayyorgarligi.

Inson, uning har tomonlama uyg‘un kamol topishi va farovonligi, shaxs manfaatlarini ro‘yobga chiqarishning sharoitlarini va ta’sirchan mexanizmlarini yaratish, eskirgan tafakkur va ijtimoiy xulq-atvorning andozalarini o‘zgartirish respublikada amalga oshirilayotgan islohotlarning asosiy maqsadi va harakatlantiruvchi kuchidir. Xalqning boy intellektual merosi va umumbashariy qadriyatlar asosida, zamonaviy madaniyat, iqtisodiyot, fan-texnika va texnologiyalarning yutuqlari asosida kadrlar tayyorlashning mukammal tizimini shakllantirish O‘zbekiston taraqqiyotining muhim shartidir.

Maktabgacha davr – bu bolaning o‘shish, rivojlanish, o‘zini namoyon etishga intilish, o‘rganishga, bilishga ishtiyoqi kuchli bo‘lgan davrdir. Aynan shu davrda bolaning insoniy sifatleri va aqliy salohiyati rivojlanishi uchun poydevor yaratiladi. Maktabgacha yoshdagi bola bilan ta’lim-tarbiya qanchalik erta boshlansa, samarasi shunchalik erta namoyon bo‘ladi va bolaning butun hayotiga ijobiy ta’sir qiladi. Maktabgacha ta’lim bola 6-7ga yetgunicha davlat va nodavlat maktabgacha tarbiya bolalar muassasalarida hamda oilalarda amalga oshiriladi.

Maktabgacha ta’lim muassasasining asosiy vazifasi – har bir bola shaxsini yosh bosqichiga mos tarzda sifatli rivojlantirish va uni navbatdagi ta’lim bosqichiga puxta tayyorlashni ta’minlash hamda muassasada ijobiy muhit va zarur sharoit yaratishdan iboratdir. Yurtboshimiz tomonidan qabul qilingan Farmon va Qarorlar uzluksiz ta’lim tizimining muhim bo‘g‘ini sanalmish maktabgacha ta’lim tizimini yanada takomillashtirish, maktabgacha ta’lim muassasalarining davlat hamda nodavlat tarmog‘ini kengaytirish, ularni malakali pedagog kadrlar bilan ta’minlashda dasturilamalga aylandi.

Demak, hozirgi zamon tarbiyachisi o‘z mutaxassisligiga oid bilimlar bilan birga, pedagogik va psixologik bilimlarni hamda turli fan yo‘nalishlari bo‘yicha maxsus bilimlarga ega bo‘lgan, kasbiy tayyorgarlik, yuksak axloqiy fazilatlarini egallagan, ta’lim muassasalarida faoliyat ko‘rsatuvchi shaxsdir.

Tarbiyachi yosh avlodimizni xalqimizning munosib farzandlari qilib tayyorlashdek muhim, faxrli ish bilan birga mas’uliyatli vazifani bajaradi. Tarbiyachining siyosiy yetukligi bolalarni tarbiyalash sifati uchun xalq hamda jamiyat oldidagi o‘z mas’uliyatini anglashga, ta’lim-tarbiya vazifalarini ijodiy yondashishga, o‘z mahoratini doimo takomillashtirib borish

“Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim, fan, innovatsiya va ilmiy tadqiqotlarning salmoqli natijalari: muammo va yechimlar” mavzusida Respublika ilmiy anjuman to’plam materiallari 2024-yil 19-aprel kun.

va ishdagi o’rtoqlarini o’sishiga yordam beradi.

Zero, tarbiyachi avvalo, bilimli bo’lishi, o’zi yashab turgan ulkan hayotini bilishi, tabiat va jamiyatning qonuniyatlarini tushunishi, ijtimoiy faol bo’lishi, umumiy va maktabgacha tarbiya pedagogikasini, bolalar ruhiyati va fiziologiyasini egallashi va bolalarning yosh xususiyatlarini bilishi kerak. Shuningdek, pedagogik tarbiyachining hodisalarni tahlil qilishga ilmiy nuqtayi nazardan yondashuvi bolani har tomonlama rivojlantirish muvaffaqiyatini amalga oshirishga imkon beradi. Mustaqillik munosabati bilan respublikamiz rahbariyati tarbiyachilarning faoliyatini yuqori baholamoqda.

Tarbiyachining kasbiy pedagogik tayyorgarligi shartli ravishda quyidagi yo’nalishlarda olib boriladi:

- 1) tarbiyachining shaxsiy fazilatlar bo’yicha tayyorgarligi;
- 2) tarbiyachining ruhiy-psixologik tayyorgarligi;
- 3) tarbiyachining ijtimoiy-pedagogik va ilmiy-nazariy jihatdan tayyorgarligi;
- 4) tarbiyachining maxsus va ixtisoslikka oid uslubiy bilimlarni egallab borishi.

Tarbiyachi eng avvalo, mulohazali, bosiq, har qanday pedagogik vaziyatni to’g’ri baholay oladigan hamda mavjud ziddiyatlarni bartaraf etishning uddasidan chiqqa olishi kerak. Muloqot jarayonida tarbiyachining so’zlaridan suhbatdoshiga nisbatan xayrixohlik, samimiylilik, do’stona munosabat, yaxshi kayfiyat sezilib tursin. Hozirgi sharoitda jamiyatning tarbiyachilik kasbiga nisbatan qo’yayotgan talablari kun sayin ortib bormokda va bu talablarni amalga to’g’ri tashkil qilish vazifasi tarbiyachiga bog’liq. Ijodiy faoliyat olib boruvchi tarbiyachi faqatgina bolalarni muvaffaqiyatli o’qitish va tarbiyalash, ilg’or pedagoglar ish tajribalarini o’rganish bilangina cheklanib qolmasdan, tadqiqotchilik ko’nikma va malakalariga ham ega bo’lishi zarur. Hozirgi zamon tarbiyachisi fan va texnika taraqqiyotining eng so’nggi yutuqlaridan foydalanishi, o’z kasbiy faoliyatida yangi pedagogik texnologiyalarni unumli qo’llay olishi taqozo etiladi.

Pedagog ijodiy faoliyatni tashkil etishda muammoli masalalarni yechish, muammoli vaziyatlarni tahlil qilish, shuningdek, pedagogik xarakterdagi ijod mahsulotlarini yaratishga alohida e’tibor qaratishi zarur. Muammoli masala va vaziyatlarni hal qilar ekan, tarbiyachining masala echimini topishga ijodiy yondashishi unda hissiy-irodaviy sifatlarning rivojlanishiga yordam beradi. Pedagog o’z oldiga muammoli masalalarni qo’yish orqali mavjud bilimlari va hayotiy tajribalariga zid bo’lgan dalillar bilan to’qnash keladi. Buning natijasida o’z ustida ishlash, mustaqil o’qib o’rganishga nisbatan ehtiyoj sezadi. Tarbiyachining ilmiy-tadqiqot ishlari va ilmiy yoki ijodiy loyihalarni amalga oshirishi unda kreativlik potentsialini yanada rivojlantiradi. Tarbiyachi o’z-o’zidan ijodkor bo’lib qolmaydi. Uning ijodkorlik qobiliyati ma’lum vaqt ichida izchil o’qib- o’rganish, o’z ustida ishlash orqali shakllanadi.

Zamonaviy ta’lim barcha turdagi ta’lim muassasalarida faoliyat yuritayotgan tarbiyachi, pedagoglarning ijodkor bo’lishlarini taqozo etmoqda.

“Kreativlik” tushunchasi o’zida madaniy xilma-xillikni aks ettiradi. G’arb kishilari uchun kreativlik, umuman olganda, yangilik sanaladi. Ular kreativlik negizida noan’anaviylik, qiziquvchanlik, tasavvur, hazil-mutoyiba tuyg’usi va erkinlik mavjud bo’lishiga e’tiborni qaratadilar.

Sharqliklar esa, aksincha, kreativlikni ezgulikning qayta tug’ilish jarayoni, deb tushunadilar. Garchi g’arblik va sharqliklarning kreativlik borasidagi qarashlari turlicha bo’lsa-da, biroq, har ikki madaniyat vakillari ham mazkur sifat va unga egalikni yuqori baholaydilar.

Ko’pgina pedagog-tarbiyachilar o’zlarida kreativlik qobiliyatini mavjud emas, deb hisoblaydilar. Buni ikki xil sabab bilan asoslash mumkin:

- birinchidan, aksariyat pedagog-tarbiyachilar ham aslida “kreativlik” tushunchasi

qanday ma’noni anglatishini etarlicha izohlay olmaydilar;

– ikkinchidan, kreativlik negizida bevosita qanday sifatlar aks etishidan bexabarlar.

Ayni o’rinda shuni alohida qayd etib o’tish joizki, har bir shaxs tabiatan kreativlik qobiliyatiga ega. Xo’sh, ular o’zlarida kreativlik qobiliyati mavjudligini qanday namoyon eta olishlari mumkin. Bu o’rinda Patti Drapeau shunday maslahat beradi: Agarchi o’zingizni kreativ emasman deb hisoblasangizda, hozirdanoq kreativ tafakkurni rivojlantirishga qaratilgan darslarni tashkil eta boshlashingizni maslahat beraman. Aslida, gap sizning ijodkor va kreativ bo’lganingiz yoki bo’lmaganingizda emas, balki darslarni kreativlik ruhida tashkil etishingiz va yangi g’oyalarni amalda sinashga intilishingizdadir.

Xulosa o’rnida shunga to’xtalib o’tish joizki, tarbiyachi yosh avlodimizni xalqimizning munosib farzandlari qilib tayyorlashdek muhim, faxrli ish bilan birga mas’uliyatli vazifani bajaradi. Tarbiyachining ijtimoiy-siyosiy yetukligi bolalarni tarbiyalash sifati uchun xalq hamda jamiyat oldidagi o’z mas’uliyatini anglashga, ta’lim-tarbiya vazifalarini ijodiy yondashishga, o’z mahoratini doimo takomillashtirib borish va ishdagi o’rtoqlarini o’sishiga yordam beradi.

Bugungi kun talabi tarbiyachi kasbiy faoliyatni amalga oshirish uchun zarur bo’lgan bilim, ko’nikma va malakalarning egallashi va ularni amalda yuqori darajada qo’llay bilishi, bir so’z bilan aytganda kasbiy kompetentlikka ega bo’lishi talab etmoqda.

Tarbiyachining kreativlik sifatlariga ega bo’lishi uning shaxsiy qobiliyatlari, tabiiy va ijtimoiy quvvatini kasbiy faoliyatni sifatli, samarali tashkil etishga yo’naltiradi. Binobarin, kreativlik sifatlariga ega pedagog kasbiy faoliyatini tashkil etishda ijodiy yondashish, yangi, ilg’or, bolalarning o’quv faoliyatini, shaxsiy sifatlarini rivojlantirishga xizmat qiladigan g’oyalarni yaratishda faollik ko’rsatish, ilg’or pedagogik yutuq va tajribalarni mustaqil o’rganish, shuningdek, hamkasblar bilan pedagogik yutuqlar xususida doimiy, izchil fikr almashish tajribasiga ega bo’lishga e’tibor qaratadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YHATI

1. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 9 sentyabrdagi PQ-3261-sonli “Maktabgacha ta’lim tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to’g’risida”gi Qarori.
2. O’zbekiston respublikasi Prezidentining 2017 yil 30 sentyabrdagi PQ-3305-sonli “O’zbekiston respublikasi maktabgacha ta’lim vazirligi faoliyatini tashkil etish to’g’risida”gi Qarori.
3. Mirziyoev SH.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. –T.: O’zbekiston, 2017.
4. “Maktabgacha yoshdagi bolalarni maktabga tayyorlash”. G. Q. Jalolova, metodik tavsia. Toshkent, 2004 yil. 56-b.
5. Nemov R.S. Psixologiya. Kniga 2. Psixologiya obrazovaniya. – Moskva: Vldos, 2000. – S. 598.
6. Rahimov B.X. Bo’lajak o’qituvchilarda kasbiy-madaniy munosabatlarning shakllanishi: Ped.fanl. nomz. ... diss. – T.: 2002. – 161 b.
7. Sayidahmedov N. Pedagogik mahorat va pedagogik texnologiya. – T.: OPI, 2003. 7-b
8. www.tdpu.uz, www.pedagog.uz, www.ziyonet.uz, www.i-gnom.ru.